



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 1 (03)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali 1-son 2026 yil*

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

1

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Tursunov A.M. O‘zbekiston elektroenergetikasini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalar va “Yashil” energetikaning o‘rni.....	7
Abdulazizov A.A. Raqamlashtirish sharoitida energetika sanoati korxonalarining barqaror rivojlanish omillari.....	11
Jurayev D.A. Электротехника sanoati korxonalarida ishlab chiqarish jarayoniga taʼsir etuvchi omillar.....	15
Suyarov Sh.S. Konchilik sanoati korxonalarida resurs salohiyatidan samarali foydalanish.....	18
Кариева Л.С. Энергетика sanoati korxonalarining ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo‘llari.....	21
Axtamov A.U. Aksionerlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvning moliyaviy samaradorlikka taʼsiri xususida.....	25
Гафуров А.Б. Значение цифровой трансформации управления образованием в высших учебных заведениях.....	29
Абиткариев А.М. Значение развития человеческого капитала и стимулирования трудовой деятельности.....	33
Abdullayev D.G’. Intellektual kapital: tushunchasi, mazmuni va taraqqiyoti.....	37
Abdullayev M.G’. Xodimlarning professional rivojlanishini baholash usullari.....	42
Isakov A.Y. Tadbirkorlik sub’yektlarida raqobat ustunliklarini shakllantirishning asosiy omillari.....	46
Ashurova G.N. Charm poyabzal sanoatining xom-ashyo ishlab chiqarish va uning zahira resurslari.....	52
Yo‘ldosheva M.F. O‘zbekistonda davlat budjeti daromad va xarajatlarining tarkibi va ularning statistik tahlili.....	56
Қулматов А.А. Кичик бизнес ва хусусий тadbirkorlikni mintaqalarda qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari.....	61
Babayev A.N. Yoshlar bandligini taʼminlashni boshqarishning nazariy-metodologik asoslari va institutsional mexanizmlari.....	67
Sharipov H.A. Oilaviy tadbirkorlikning iqtisodiy mazmuni va xo‘jalik yuritish shakli sifatidagi o‘ziga xos belgilari.....	71
Турдиева Я. Анализ коррупционных рисков в системе гчп в сфере дошкольного образования.....	75
Vaxidov A.K. Personalni tanlash va ishga yollashning xorijiy tajribalari.....	78
Gaymatova D.G’. Biznes faoliyatini samaradorligini oshirishda iqtisodiy-matematik tahlil.....	83
Pardayev E.E. Xizmat ko‘rsatish jarayonlarini boshqarishda raqamli texnologiyalarning iqtisodiy samaradorligi.....	87
Ibragimova S.A., Muradov Sh.D. Aksiyadorlik jamiyatlari boshqaruvida innovatsion usullarni joriy etishning zamonaviy tendensiyalari.....	91
Адилов Б.Б. Социальные услуги в Республике Узбекистан: современное состояние, проблемы и перспективы развития.....	96
Yoqubova Z.T. Tarkibiy o‘zgarishlar va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi mutanosiblikni taʼminlashning konseptual asoslari.....	101
Saidaxmedova N.I., Aripov A.S. Oliy taʼlim tashkilotlari boshqaruv tizimini shakllantirishda iqtisodiy nazariyalarning metodologik ahamiyati.....	106
Abduvoyeva X.Sh. O‘zbekistonda davlat ijtimoiy xarajatlarining aholi farovonligiga taʼsirining korrelyatsion–regression tahlili.....	111
Умаров А.А. Хорижий тажрибаларга асосан янги банк хизматларини жорий этилишини ривожлантириш натижасида тижорат банкларини хизматлар жозибadorligini oshirish... Shoraximova Z.N. «O‘zbekistonda sug‘urta kompaniyalarida qayta sug‘urta orqali risklarni diversifikatsiya qilish samaradorligini baholash».....	116
Умурзакова З.С. Меҳнат омилидан фойдаланишни такомиллаштириш йўллари.....	126
Karimov X.O. Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish orqali aholi daromadlarini oshirishning institutsional strategiyalari.....	130

Aхунов М.А. Корхона иқтисодий самарадорлигини таъминлашнинг асосий йўналишлари.	134
Ахмаджонов С.С. Корхона асосий фондларидан фойдаланишни яхшилашнинг ижтимоий-иқтисодий самараси.....	138
Abdullayeva Sh.А. Veb-texnologiyaga asoslangan bir turdagi tovar zaxiralarini boshqarish va amaliy masalalarni optimallashtirish.....	142
Дусанов С.М. Таълим тизимида рақобат муҳитини ривожлантиришнинг молиявий ресурслардан фойдаланиш аҳамияти.....	146
Мамаражобов А.С. Tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati natijalarini reytinglash va undan foydalanish masalalari.....	151
Nigmatova D.Z., Amanov E.G’. Kadrlar qo‘nimsizligining korxonalarida samaradorligiga ta’siri.....	157
Ikromjonova M.U. To‘qimachilik korxonalarida mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning iqtisodiy mohiyati va tarkibi.....	160
Madaminjonov A.O. To‘qimachilik korxonalarida tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish va sotish hisobini rivojlantirishning iqtisodiy jihatlari.....	164
Jamoliddinova S.S. Ustama xarajatlarning iqtisodiy mohiyati, tarkibi va ishlab chiqarish tannarxini shakllantirishdagi o‘rni.....	168
Akbaraliyev A.E. O‘zbekiston Respublikasida investitsiya siyosati va investitsiya dasturlarining iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rni.....	173
Эрматова С.И. Учет обязательств в хозяйствующих субъектах.....	178
Maxsudov Sh.S. To‘qimachilik sanoati korxonalar faoliyati samaradorlikni monitoring qilishning ahamiyati.....	181
Boyev X.I., Adilov B.B. Mahalliy byudjetlar barqarorligi — ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlash omili sifatida.....	186
Raxmonova N.A. Biznes ta’limida raqamli transformatsiya va innovatsion o‘qitish strategiyalari.....	190
Якубова Д.М. Применение экономико-математических моделей в промышленном производстве.....	194
Ibrohimov N.B., Jabbarov K.Y. Aylanma iqtisodiyotga o‘tishning fundamental asoslari: chiziqli modelning cheklovlari va barqaror rivojlanish imkoniyatlari.....	198
Matyoqubova D.O. Biznes tuzilmalarining innovatsion rivojlanishini diversifikatsiya qilish.....	202
Rahmatullayeva F. Andijon viloyatida yoshlar tadbirkorligi rivojlanishining tarmoqlararo diversifikatsiyasi va iqtisodiy faollikka ta’siri.....	206
Mamajonov L.A. Mahalliy byudjet daromadlarining barqarorligini ta’minlash yo‘nalishlari.....	209
Давруков Ф.У. Инновационные механизмы демонополизации в условиях цифровой трансформации экономики Республики Узбекистан.....	213
Убайдуллаева Н.Р. Роль перестрахования в управлении катастрофическими рисками и обеспечении финансовой устойчивости страховых компаний.....	222
Abdullayev A.A. Tijorat banklari orqali kichik biznesni moliyalashtirish samaradorligini oshirish mexanizmlari.....	227
Alimov O.N. O‘zbekiston Respublikasida jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti tizimining huquqiy asoslari va rivojlanish istiqbollari.....	230
Sultonov B.M. Oilaviy korxonalar faoliyatini boshqarishda va boshqaruv mexanizmi bo‘yicha institutsional asoslari.....	235
Mamajonova N.A. Innovatsion rivojlanish sharoitida iqtisodiy tizimlarni boshqarish nazariyalarining transformatsiyasi hamda uning evolyutsiyasi.....	239
Sanaqulova A. O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish: muammolar va imkoniyatlar.....	243
Nazarov N.N. Hududiy barqaror rivojlantirish strategiyasini shakllantirishning metodologik asoslarini takomillashtirish.....	247
Toshpulatov A.M. Qurilish materiallari sanoati korxonalarida ishlab chiqarish hajminiga oid qarashlar va uning mohiyati.....	251
Sanaqulova A., Ochilova M. Bugungi kunda raqamli iqtisodiyot.....	254
Umarov I.Y. Xalqaro darajada sifat menejmenti va ISO standartlarini rivojlanish tendensiyalari tahlili....	257

O‘ZBEKISTONDA DAVLAT IJTIMOYIY XARAJATLARINING AHOLI FAROVONLIGIGA TA’SIRINING KORRELYATSION–REGRESSION TAHLILI

КОРРЕЛЯЦИОННО-РЕГРЕССИОННЫЙ АНАЛИЗ ВЛИЯНИЯ ГОСУДАРСТВЕННЫХ СОЦИАЛЬНЫХ РАСХОДОВ НА БЛАГОСОСТОЯНИЕ НАСЕЛЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ

CORRELATION AND REGRESSION ANALYSIS OF THE IMPACT OF GOVERNMENT SOCIAL EXPENDITURES ON POPULATION WELFARE IN UZBEKISTAN

Abduvoyeva Xulkar Shuhrat qizi

O‘zbekiston Milliy universiteti Matematik iqtisodiyot yo‘nalishi magistranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida davlat ijtimoiy xarajatlarining aholi farovonligi ko‘rsatkichlariga ta’siri empirik jihatdan o‘rganildi. Tadqiqotda 2014–2023 yillar oralig‘idagi makroiqtisodiy ma’lumotlar, sog‘liqni saqlash, ta’lim va ijtimoiy himoyaga ajratilayotgan mablag‘lar statistikasi asosida korrelyatsion tahlil va ko‘p omilli regressiya modeli qo‘llanildi. Aholi farovonligi real daromadlar va kambag‘allik darajasi orqali ifodalanadi. Natijalar ta’lim va sog‘liqni saqlash xarajatlarining inson rivojlanish indeksi va real daromadlar o‘shishiga sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqladi. Olingan natijalar ijtimoiy xarajatlar bilan aholi farovonligi o‘rtasida ijobiy va statistik jihatdan ahamiyatli bog‘lanish mavjudligini ham ko‘rsatadi. Bu tadqiqot O‘zbekistonda ijtimoiy siyosatning samaradorligini oshirish, xarajatlarni to‘g‘ri taqsimlash bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar, sog‘liqni saqlash, ta’lim, ijtimoiy himoya, korrelyatsion tahlil, regressiya tahlili, davlat ijtimoiy xarajatlari, Fisher mezoni, Student mezoni, OLS.

В данной статье эмпирически исследовано влияние государственных социальных расходов в Республике Узбекистан на показатели благосостояния населения. В исследовании использованы макроэкономические данные за 2014–2023 годы, а также статистические сведения о государственных расходах на здравоохранение, образование и социальную защиту. В качестве методов анализа применены корреляционный анализ и модель многофакторной регрессии. Благосостояние населения оценивалось на основе уровня реальных доходов и показателя бедности. Результаты исследования подтвердили, что расходы на образование и здравоохранение оказывают существенное положительное влияние на рост реальных доходов и показатели человеческого развития. Полученные выводы свидетельствуют о наличии положительной и статистически значимой зависимости между государственными социальными расходами и уровнем благосостояния населения. Результаты исследования могут быть использованы при разработке практических рекомендаций по повышению эффективности социальной политики и оптимальному распределению государственных социальных расходов в Узбекистане.

Ключевые слова: макроэкономические показатели, здравоохранение, образование, социальная защита, государственные социальные расходы, корреляционный анализ, регрессионный анализ, метод OLS, критерий Фишера, критерий Стьюдента.

This article empirically examines the impact of government social expenditures on population welfare indicators in the Republic of Uzbekistan. The study is based on macroeconomic data for the period 2014–2023, including statistical information on public spending on healthcare, education, and social protection. Correlation analysis and a multiple regression model were applied as the main

research methods. Population welfare was measured through real income levels and poverty indicators. The results confirm that expenditures on education and healthcare have a significant positive effect on real income growth and human development indicators. The findings also indicate the existence of a positive and statistically significant relationship between government social expenditures and population welfare. The results of the study contribute to the development of practical recommendations aimed at improving the effectiveness of social policy and optimizing the allocation of social expenditures in Uzbekistan.

Keywords: macroeconomic indicators, healthcare, education, social protection, government social expenditures, correlation analysis, regression analysis, OLS method, Fisher test, Student’s t-test.

Aholi farovonligini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. O‘zbekiston so‘nggi yillarda ijtimoiy sohalarga ajratilayotgan mablag‘larni izchil oshirib kelmoqda. Xususan, ijtimoiy himoya va aholi farovonligini oshirish: ta‘lim, sog‘liqni saqlash, pensiyalar, ijtimoiy himoya kabi sohalarga yo‘naltirilgan xarajatlar aholi turmush darajasini ko‘taradi hamda farovonlikni oshiradi. Shu sababdan ham 2024-yilning o‘zida byudjet xarajatlarining eng katta qismi 152,3 trillion so‘m mablag‘ shu sohaga yo‘naltirilgan. Ta‘lim uchun esa 71,2 trillion so‘m ajratilgan bo‘lib, bu mablag‘lar maktabgacha ta‘lim muassasalari, umumta‘lim maktablari, professional va oliy ta‘lim tizimini qo‘llab- quvvatlash va moddiy-texnik bazani mustahkamlashga sarflangan. Shunday bo‘lsada, hali ham davlat xarajatlarining farovonlikka real ta‘siri qanchalik kuchli ekanligini aniqlash zarurati mavjud. Aynan qaysi yo‘nalishdagi xarajatlar aholi farovonligiga ko‘proq ijobiy ta‘sir qilishini aniqlash va bu xarajatlarni miqdoriy baholash dolzarb ilmiy- amaliy ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolaning maqsadi – O‘zbekistonda davlat ijtimoiy xarajatlari va aholi farovonligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni korrelyatsion- regression tahlil asosida aniqlashdir.

Mazkur maqola davlatning ijtimoiy xarajatlari va aholi farovonligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni regressiya tahlili, korrelyatsion tahlil va boshqa matematik-statistik yondashuvlar yordamida aniqlaydi va O‘zbekiston uchun amaliy tavsiyalarni taklif etadi. Bu orqali aynan qaysi yo‘nalishga xarajatlarni ko‘proq taqsimlash kerak ekanligini prognoz qilish mumkin bo‘ladi. Ushbu prognoz sababli aholi turmush darajasini yanada oshirish, kam ta‘minlangan yo‘nalishlarga e‘tiborni kuchaytirish, xarajatlarni to‘g‘ri taqsimlash imkoni tug‘iladi.

Asosiy maqsadimiz davlat byudjet xarajatlarini to‘g‘ri yo‘naltirish. Taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonlarini yanada optimallashtirish uchun aniq tahlillar asosida tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Davlat xarajatlarining farovonlikka ta‘siri bo‘yicha nazariy yondashuvlar uch guruhga bo‘linadi:

1. Inson kapitali nazariyasi: T. Schultzning fikricha, ta‘lim va sog‘liqni saqlashga yo‘naltirilgan davlat xarajatlari inson kapitaliga kiritilgan investitsiyalar bo‘lib, ular mehnat unumdorligi va real daromadlar o‘shini ta‘minlash orqali aholi farovonligini oshiradi [1].

Gary Beckerning inson kapitali nazariyasiga ko‘ra, ta‘lim va sog‘liqni saqlashga yo‘naltirilgan davlat xarajatlari mehnat unumdorligi va real daromadlarning o‘shiga xizmat qiladi hamda aholi farovonligini oshiruvchi muhim omil hisoblanadi [2].

2. Fiskal siyosat va farovonlik modeli: Keynesian yondashuvga ko‘ra, davlat xarajatlarining ko‘payishi ijtimoiy xizmatlar sifatini oshiradi, daromadlarni ko‘paytiradi va umumiy iqtisodiy o‘shiga turtki beradi.

3. Empirik tadqiqotlar: Osiyo davlatlari bo‘yicha tadqiqotlar ijtimoiy xarajatlarning farovonlik indeksi bilan ijobiy bog‘liqligini ko‘rsatgan. Afrika davlatlari misolida sog‘liqni saqlash xarajatlari umr ko‘rish davomiyligini sezilarli oshirishi aniqlangan. MDH davlatlarida ta‘lim xarajatlarining real daromadlar o‘shiga ta‘siri barqaror kuzatilgan. Ushbu adabiyotlar ijtimoiy xarajatlar va farovonlik o‘rtasida ijobiy bog‘liqlik mavjudligini tasdiqlaydi.

Iqtisodiy adabiyotlarda davlat ijtimoiy xarajatlarining farovonlikka ta‘siri keng yoritilgan. Keynesiy yondashuvga ko‘ra, ijtimoiy xarajatlarning ko‘payishi umumiy talabni rag‘batlantirib, aholi daromadlarini oshiradi. Xorijiy tadqiqotlarda ijtimoiy transferlar va davlat xizmatlari kambag‘allikni

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali 1-son 2026 yil*

qisqartirishda muhim omil sifatida ko‘rsatiladi. Mahalliy olimlar tadqiqotlarida ham O‘zbekistonda ijtimoiy xarajatlarning bandlik va real daromadlarga ijobiy ta‘hiri qayd etilgan. Biroq mazkur bog‘liqlikni so‘nggi yillar ma‘lumotlari asosida ekonometrik jihatdan baholash ehtiyoji saqlanib qolmoqda.

Tadqiqotda 2014- 2023- yillar oralig‘idagi yillik statistika ma‘lumotlaridan foydalanildi. Korrelyatsion va regressiya tahlili hisob-kitoblari Microsoft Excel dasturi yordamida amalga oshirildi. Xususan, korrelyatsiya koeffitsiyentini aniqlashda CORREL () funksiyasidan, chiziqli regressiya modelini baholashda esa Data Analysis → Regression moduli qo‘llanildi. Eng kichik kvadratlar usuli (OLS) asosida olingan natijalar determinatsiya koeffitsiyenti (R^2), Student t-mezoni va Fisher F-mezoni orqali statistik jihatdan tekshirildi.


O‘zgaruvchilar: YaIM aholi jon boshiga (USD), ta‘lim xarajatlari Sog‘liqni saqlash, ijtimoiy himoya xarajatlari yalpi ichki mahsulotga nisbatan foizda ifodalandi.

1-jadval

Iqtisodiy ko‘rsatkichlar [3]

№	Yil	YaIM aholi jon boshiga (USD)	Ta‘lim xarajatlari (% YaIM)	Sog‘liqni saqlash (% YaIM)	Ijtimoiy himoya (% YaIM)
1	2014	2659,99	5,94	2,45	6,85
2	2015	2803,19	5,66	2,37	6,99
3	2016	2918,68	5,57	2,28	6,61
4	2017	2995,77	4,52	1,9	5,48
5	2018	3108,16	4,63	1,99	5,42
6	2019	3259,37	6,03	2,17	5,58
7	2020	3249,05	5,5	2,9	6,59
8	2021	3442,72	5,79	2,78	6,25
9	2022	3576,72	6,55	2,92	7,00
10	2023	3725,67	7,09	2,79	6,61

1-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, barcha ko‘rsatkichlar deyarli o‘shish tartibida ketmoqda. Bu statistika ma‘lumotlari inflyatsiyani hisobga olgan holda doimiy narxlarda yozilgan. Bundan ko‘rinadiki yildan-yilga davlat xarajatlari oshib bormoqda. Ammo 2020-yil ma‘lumotlarida biroz farqlar bor.




1-rasm. 2014-2023-yillar oralig‘ida ta‘lim xarajatlari, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy himoya uchun ajratilgan xarajatlari grafigi

Manba: <https://data.worldbank.org> ma‘lumotlari asosida tayyorlandi.

Korrelyatsiya tahlili: Pearson korrelyatsiya koeffitsienti yordamida o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi chiziqli bog‘liqlik baholandi. Natijalarga ko‘ra korrelyatsiya koeffitsienti $r = 0,91$ ga teng bo‘ldi. Korrelyatsiya koeffitsientining $0 \leq r \leq 1$ oraliqda bo‘lgani va birga juda yaqin bo‘lgani sababli, o‘zgaruvchilar o‘rtasida o‘zaro to‘g‘ri bog‘lanishli funksional bog‘lanish mavjud deyish mumkin bo‘ladi.

natijalar xulosasi	
Regressiya statistikasi	
Bir Nechta R	0,905461877
R-kvadrat	0,819861212
Normallashtirilgan R-kvadrat	0,729791817
Standart xato	177,9434837
Kuzatuvlar	10
Dispersiya tahlili	



	df	SS	MS	F	F ning ahamiyati
Regressiya	3	864666,2955	288222,0985	9,102550525	0,011889532
Qoldiq	6	189983,3004	31663,8834		
Jami	9	1054649,596			
	Koeffitsientlar	Standart xato	t-statistika	P-qiymati	Pastki 95%
Y-kesishish	3209,189069	621,9548602	5,159842416	0,002095048	1687,32035
Ta'lim xarajatlari (% YaIM)	229,2202672	112,5036477	2,037447425	0,087754032	-46,0662415
Sog'liqni saqlash (% YaIM)	808,994953	258,3052745	3,13193354	0,020274699	176,9447155
Ijtimoiy himoya (% YaIM)	-526,0828919	138,2503188	-3,805292433	0,008912473	-864,369235

2-rasm. Microsoft Excel dasturida bajarilgan tahlil natijalari.

Modelning statistik ahamiyati t-test, F-test va R^2 ko‘rsatkichlari bilan baholandi. Ushbu tadqiqotda olib borilgan regressiya tahlili natijalari quyidagicha.

Ushbu tadqiqotda ijtimoiy xarajatlarning aholi farovonligiga ta’siri ko‘p omilli regressiya modeli orqali baholandi. Modelga ta’lim xarajatlari, sog‘liqni saqlash xarajatlari va ijtimoiy himoya xarajatlari (YaIMga nisbatan foizlarda) kiritildi. Regressiyaning umumiy natijalari modelning statistik ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi.

Avvalo, modelning umumiy moslik darajasi yuqori bo‘lib, R-kvadrat 0,8199, normallashtirilgan R-kvadrat 0,7298 qiymatga ega. Bu tanlangan modelning tadqiqotimiz uchun yuqori darajada mos ekanligini bildiradi. Bundan aholi farovonligidagi o‘zgarishlarning qariyb 82 foizi tanlangan mustaqil omillar bilan izohlanishini anglash mumkin bo‘ladi. F-statistika qiymatini hisoblash biz uchun modelimizning qay darajada ahamiyatli ekanligini bilib olishda yordam beradi. $F=9,10$ ga teng bo‘lib, bu miqdor $p=0,0119$ dan ancha katta ekanligi ham regressiya modelining umumiy ahamiyatli ekanini tasdiqlaydi.

Mustaqil o‘zgaruvchilar bo‘yicha olingan natijalar quyidagicha:

1. Sog‘liqni saqlash xarajatlari (% YaIM): Sog‘liqni saqlash xarajatlarning koeffitsienti 808,99 bo‘lib, p-qiymati 0,0202 ($p < 0,05$) ni tashkil etdi. Sog‘liqni saqlash xarajatlarning 1 foizga oshishi aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadning o‘rtacha 808 AQSH dollariga oshishi bilan bog‘liq. Bu natija sog‘liqni saqlash tizimiga yo‘naltirilgan investitsiyalar mehnat unumdorligi va iqtisodiy faol aholi salomatligining yaxshilanishi orqali farovonlikka samarali ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatadi.

2. Ta’lim xarajatlari (% YaIM): Ta’lim xarajatlari koeffitsienti 229,22 bo‘lib, p-qiymati 0,0877 ga teng. Bu omilning aholi farovonligiga ta’siri ijobiy bo‘lsa-da, statistik ahamiyatning 5 foizlik darajasiga yetmaydi. Shunga qaramay, ta’limning iqtisodiy o‘shish va inson kapitali shakllanishidagi roli inobatga olinsa, bunda uzoq muddatli ijobiy ta’sir mavjud bo‘lishi ehtimoli yuqori, ammo mavjud kichik tanlov hajmi natijaning ishonchliligini cheklaydi.

3. Ijtimoiy himoya xarajatlari (% YaIM): Ijtimoiy himoya xarajatlarning koeffitsienti $-526,08$, p-qiymati esa 0,0089 bo‘lib, statistik jihatdan sezilarli salbiy ta’sir qayd etildi. Ya’ni, ijtimoiy himoya xarajatlari oshishi aholi farovonligining pasayishi bilan bog‘liq. Bunday salbiy bog‘lanishning bir nechta ehtimoliy izohlari mavjud:

— past farovonlik darajasi mavjud hududlarda ijtimoiy himoya xarajatlari ko‘proq ajratilishi (teskari sabab-natija);

— ijtimoiy himoya dasturlarining qisqa muddatli iste‘molni oshirib, uzoq muddatli iqtisodiy ko‘rsatkichlarga kuchli ta‘sir qilmasligi.

4. Intersept (Y-kesishma): Modelning kesishma nuqtasi 3209,19 bo‘lib, $p < 0,01$ darajada statistik ahamiyatli. Bu barcha mustaqil o‘zgaruvchilar nol bo‘lgan holatda farovonlikning boshlang‘ich qiymatini aks ettiradi.

Umuman olganda, regressiya tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘rganilgan uchta asosiy davlat xarajatlari yo‘nalishidan sog‘liqni saqlash xarajatlari farovonlikni oshiruvchi sezilarli omil sifatida namoyon bo‘ldi. Ta‘lim xarajatlari ijobiy, ammo statistik jihatdan zaif ta‘sir ko‘rsatdi. Ijtimoiy himoya xarajatlari esa farovonlikni kamaytiruvchi salbiy bog‘lanishga ega bo‘lib chiqdi, bu esa ijtimoiy siyosatni takomillashtirish, maqsadli guruhlarini aniqroq ajratish va mablag‘lardan samarali foydalanish zarurligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Becker, G. S. (1964). Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education. Chicago: University of Chicago Press.
2. Gujarati, D. N. (2018). Basic Econometrics (6th ed.). New York: McGraw-Hill Education.
3. Schultz, T. W. (1961). Investment in Human Capital. American Economic Review, 51(1), 1–17.
4. World Bank. Human Development Reports. — Washington, DC: World Bank, 2014–2023.
5. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. Davlat byudjeti ijrosi to‘g‘risidagi hisobot. — Toshkent, 2014–2023.